




МУРАДЛИМ

ХЭМ

ЎЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ

Илмий-методикалык журнал № 3/2



Нөкис - 2021

МУГАЛЛИМ ХЭМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРҮҮ



ISSN 2181-7138

№ 3/2 2021 жыл

Илимий-методикалық журнал

Редактор:

А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ
Кеңесбай АЛЛАМБЕРГЕНОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ
Өсербай ӨЛЕҰОВ
Асқар ДЖУМАШЕВ
Кеңесбай ДАУЛЕТЯРОВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА
Батырбек КАИПБЕРГЕНОВ
Амангелди КАМАЛОВ
Сарсен КАЗАХБАЕВ
Гулмира КАРЛЫБАЕВА
Сабит НУРЖАНОВ
Уролбой МИРСАНОВ
Арзы ПАЗЫЛОВ
Зухра СЕИТОВА
Айдын СУЛТАНОВА
Тажибай УТЕБАЕВ
Ризамат ШОДИЕВ
Ойбахор ШАМИЕВА
Бекзод ХОДЖАЕВ
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Гулрухсор ЭРГАШЕВА

Шөлкемлестиріушілер:

Қарақалпақстан Республикасы
Халық билимлендириу
Министрлиги, ӨЗПИИИ
Қарақалпақстан филиалы

Өзбекстан Республикасы
Министрлер Кабинети
жанындағы Жоқарғы
Аттестация Комиссиясы
Президиумының 25.10.2007
жыл (№138) қарары менен
дизимге алынды

Қарақалпақстан Баспа сөз хэм
хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге
алынды №01-044-санлы гууалық
берилген.

Мәнзил: Нөкис қаласы,
Ерназар Алакөз көшеси №54
Тел.: 224-23-00
e-mail: uzniipnkkf@umail.uz,
mugallim-pednauk@umail.uz
www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz

Журналға келген мақалаларға жууан қайтарылмайды, журналда жарияланған мақалалардан алынған узиндилер «Мугаллим хэм узликсиз билимлендириу» журналынан алынды, деп көрсетилуи шәрт. Журналға 5-6 бет көлеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледі. Мақалада келтирилген мағлұматларға автор жууанкер.

МАЗМУНЫ

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ, ТАСВИРИЙ САНЪАТ

Ҳожиёв Р. Б., Норбоева Д.О. Ёшлар ижтимоий фаоллигини ривожлантириш концепциялари	4
Ismatov U.Sh. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini turli grafik materiallarda ishlashga o'rgatish (tempera bo'yog'i misolida)	12
Berdiyev O. Tasviriy san'at va chizmachilik darslarida o'quvchilar duch keladigan ayrim masalalarning amaliy faoliyatdagi yechimlari	15
Baymetov B.B., Xamroqulova M. Talabalarni boshshaklini tasvirlashga o'rgatishda konstruktiv qurilish qonuniyatlaridan foydalanish texnologiyalari	18
Abduxamidov S.M., Shadiyev A.Ya. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda jismoniy tarbiya va sportning bugungi kundagi o'rni	22
Ismatov U.Sh. Rangtasvir mashg'ulotlarida maishiy janrning ifodalanishi	25
Марасулова И.М., Зулфиев Р.Н. Ўқувчилар таълим-тарбияси жараёнида тасвирий санъат ўқитувчисининг ўрни	28
Абдуллаева Г.С. Формирование ключевых компетенций у студентов с особыми образовательными потребностями через применение ИКТ	31
Мухитдинова М.С. Нуткида оғир нуқсонли болалар билан коррекцион-ривожлантирувчи ишларни олиб боришда мусика машгулотларининг имкониятлари	35
Султанов Х.Э., Марасулова И.М., Юнусова К.Х. Педагогик инновацион кластери: Чирчиқ тажрибасининг илк натижалари	37
Султанов Х.Э., Махмудов М.Ж. Ўқувчиларни тасвирий санъат фанига кизиқтиришдаги ўқитувчининг маъсулияти	42
Қаюмов Х. А., Ко'киев В. В. Quruvchi muhandislarni tayyorlashda muhandislik grafikasi ta'limini kompyuter texnologiyasi bilan integratsiyalash	46
Махмудова М.Т. Развитие музыкальной тематики и ее актуальность в изобразительном искусстве Узбекистана	48
Марасулова И. М. Эстетическое воспитание молодежи для общества	52
Sobirov S. T. Bolalar uchun nashrlarda illyustratsiyalarning vazifalari	54
Sobirov S. T. Talabalarda yuksak axloq, kasbga sadoqat kabi insoniy fazilatlarini shakllantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishda to'garaklarning o'rni	59
Муратов Х. Х. Ўқув жараёнида мустақил таълимни ташкил этиш ва бошқаришнинг долзарблиги	61
Атаханова С.О. Масофали ўқитиш технологиясининг чизмачиликни ўқитишдаги амалий аҳамияти	65
Атаханова С.О. Чизмачилик фани бўйича ўқувчиларнинг билиш фаолиятини фаоллаштиришда муаммоли таълим технологиясидан фойдаланиш омиллари	69
Султанов Х.Э. Таълим муассасалари ҳамкорлигининг кластерли моделини ташкил этиш	73
Ко'киев В.В. Yordanchi proyeksiyalash usulidan foydalanib yaqqol tasvir qurish	76
Махмудова М.Т. Влияние музыки на изобразительного искусства	81
Махмудова М.Т. Роль и значение музыки в воссоздании изображения	85
Ко'киев В. В., Mahmudov M. J. Ijodkorlikni rivojlantirish chizama geometriya fani misolida	88
Ко'киев В. В., Qozoqboyeva D. T. Yordamchi proyeksiyalash usuli orqali yechiladigan masalalar	91

Jumayev I.O. Chizmalarni AutoCAD dasturida chizishda dasturning mavjud murakkabliklarini qo'lda chizishga moslashtirish (o'rgatish) usullari	94
Jumayev I.O. Muhandislik grafikasi fanlarida uch o'lchamli fazoni Auto CAD dasturidan foydalanib qo'llash usullari va ahamiyati	99
Xalimov M., Bekqulov Q. Chizmachilik fanini o'qitishda interaktiv metodlarni qo'llash zaruriyati	102
Bekqulov Q.Sh. O'quvchilar yo'l qo'yadigan tipik xatolarni tizimga solish va prognoz qilish oldini olish choralari	105
Bekqulov Q.Sh., To'laganova H. Muhandislik grafikasi fanlarida talabalar chizma bajarishda yo'l qo'yadigan tipik xatolar	107
Bekqulov Q.Sh., To'laganova H. Chizmachilik fanidan o'quvchilarning fazoviy tasavvurini oshirishda tugallanmagan chizmalardan foydalanish	111
Bekqulov Q.Sh., Boizaqova Sh.A. Muhandislik grafikasi fanlarini boshqa fanlar bilan bog'liqligi	113
Boizaqova Sh.A., Bekqulov Q.Sh. Ko'rinishlar mavzusini tushuntrishda detal modelini o'ziga qarab o'rganishning ahamiyati	117
Анкабаев Р. Т. Тасвирий саънатда машгулотларида иллюстрация ўргатишнинг аҳамияти	120
Бахриев И.С. Бўлажак тасвирий саънат ўқитувчиларини касбий тайёрлашда композиция фанининг назарий асослари	122
Атажанова Р. Р. Возможности уроков изобразительного искусства в развитии творческих способностей младших школьников	126
Бахриев И.С. Бўлажак тасвирий саънат ўқитувчиларини касбий тайёрлашда композиция фанини ўқитилишининг амалиётдаги ҳолатини ўрганиш	128
Xalimov M. Chizmachilik fanini o'qitishda interaktiv metodlarni qo'llash zaruriyati	133
Achilov N. N. AutoCAD dasturi yordamida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish yaqqol tasvirlarni bajarish asosida	136
Анкабаев Р.Т., Миржалилов М. Б. Тасвирий саънатда машгулотларида миниатюрани ранг тасвирини ўргатишнинг аҳамияти	141
Achilov N. N. Ko'rgazmali qurollardan foydalangan holda talabalarda ijodiy qobiliyat va dars samaradorligini oshirish yo'llari	145
Saydaliyev S.S., Nig'manov B.V., Achilov N.N. Arxitekturada inson va fazo	149
Ҳоҷиев Р. Б. Норбоева Д.О. Ёшларнинг ижтимоий қатлам сифатида мавжудлигининг онтологик асоси	155

Ўқувчиларнинг нафосат туйғуси ва иждоқкорлик қобилиятини ўстириш учун тўғарақлардан унумли фойдаланиш керак: айниқса адабиёт, музыка, тасвирий санъат, эстетиканинг бадиий таълим-тарбиянинг имкониятларидан яхшироқ фойдаланишни назарда тутилади.

Хулоса қилиб айтганда умумтаълим мактаблари, санъат литсейлари ва олий таълимни ривожлантириш асосий масалаларидан бири, миниатюрани мактаб ўқувчиларига ва талабаларга миниатюра асарларини кенг ўргатиш, қидириб топиш шундай санъат асарлари мавжудлигини, ишлаш усулларини такомиллаштириш ҳозирги даврнинг долзарб масалаларидан биридир.

Адабиётлар:

1. П. П. Шабаратов «МИНИАТЮРА» “ТАФАККУР” нашриёти. Тошкент – 2011
2. Х.Э.Султанов, Р.Т.Анкабаев Ёш мусаввир (методик қўлланма) Тошкент 2017
3. Тўғарақ машғулотида ўқувчиларнинг бадиий ижодий компетенцияларини ривожлантириш методикаси Муғаллим ҳам узлуксиз билимлендириш – 2020 yil № 2. ISSN 2181-7138
4. Tasviriy san'at o'garaklarida o'quvchilariga Zomin manzarasini chizish orqali estetik madaniyatini rivojlantirish metodikasi Academic Research in Educational Sciences ISSN 2181-1385 VOLUME 1, ISSUE 2 OCTOBER 2020
5. Султанов Х.Э., Пак В.Ш., Кукиев Б.Б. Использование новых информационных коммуникативных технологий на уроках изобразительного искусства МОЛОДОЙ УЧЁНЫЙ научный журнал №4 2016. С-829-833;

РЕЗЮМЕ

Мазкур мақолада умумтаълим мактаблари, санъат литсейлари ва олий таълимни ривожлантириш асосий масалаларидан бири, мактаб ўқувчиларига ва талабаларга миниатюра асарларини кенг ўргатиш, қидириб топиш шундай санъат асарлари мавжудлигини, ишлаш усулларини такомиллаштириш ҳозирги даврнинг долзарб масалаларидан биридир.

РЕЗЮМЕ

В статье один из основных вопросов развития общеобразовательных школ, художественных лицеев и высших учебных заведений, всестороннее изучение миниатюр школьниками и студентами, поиск таких произведений искусства, совершенствование методов работы является одним из актуальных вопросов.

SUMMARY

In article, one of the main issues of the development of secondary schools, art lyceums and higher educational institutions, a comprehensive study of miniatures by schoolchildren and students, the search for such works of art, and the improvement of work methods is one of the most relevant questions.

KO'RGAZMALI QUROLLARDAN FOYDALANGAN HOLDA TALABALARDA IJODIY QOBILİYAT VA DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Achilov N. N.

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti,

Tasviriy san'at kafedrasida katta o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: interaktiv metod, interaktiv metod, pedagogika, konsepsiya, metodika, chizmachilik, bilim, mustaqil ta'lim, innovatsiya.

Ключевые слова: интерактивный метод, интерактивный метод, педагогика, концепция, методология, рисование, знания, самостоятельное обучение, инновации.

Key words: interactive method, interactive method, pedagogy, concept, methodology, drawing, knowledge, independent learning, innovation.



Ma'lumki, darslarni tashkil etishda ko'rgazmali va tarqatmali materiallardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Didaktikaning asosiy tamoyillaridan biri darslarning ko'rgazmali va tarqatmaliligini ta'minlashdan iboratdir.

Ta'lim-tarbiya tizimining bugungi kundagi asosiy vazifasi o'sib kelayotgan yoshlarni vatanparvar, zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirgan hamda jamiyatda o'z munosib o'rnini egallashga qodir bo'lgan - komillikka intiladigan barkamol avlodni voyaga yetkazishdir.

Bugungi kunda ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish sohaslarining tez sur'atlarda jadallik bilan rivojlanishi barcha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya sifatini mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarishni talab etmoqda. Bu o'z o'rnida har bir tizim xodimi, ayniqsa, o'qituvchilar zimmasiga yanada yuksak mas'uliyat va vazifalarni yuklaydi. Negaki, rad qilib bo'lmaydigan bir haqiqat bor - qilingan barcha sa'y-harakatlar oxir-oqibat o'qituvchi mehnati orqali o'z natijasini namoyon etadi. Shunday ekan, pedagoglardan vijdonan mehnat qilish, yorug' kelajagimiz oldidagi mas'uliyatlilik, ko'rsatilayotgan yuksak e'tiborga munosib javob berish talab etiladi. Bu esa farzandlarimizning chuqur bilim egallashlarida asosiy rol o'ynaydigan sifatli darsda namoyon bo'ladi.

Har qanday fanni o'qitish metodikasining asoslari uchta asosiy tarkibiy qismlar: konsepsiya, ta'limning metodik tizimi va ular ta'sir natijalarini baholashdan iborat.

Jahon pedagogik fani va amaliyotida ta'limni tashkil etishning turli shakllari mavjud. Jamiyat rivojining har bir yangi bosqichi ta'limni tashkil etishga o'z ta'sirini o'tkazadi. Ayni vaqtda ta'limning quyidagi shakllari ajratib ko'rsatiladi: individual, individual-guruhli, sinfdars, leksion-seminarli va sinfdan tashqari auditoriyadan tashqari, maktab va maktabdan tashqari. Ular o'quvchilarni qamrab olishi, o'quvchilar faoliyatini tashkil etishi jamoaviy va individual shakllarining nisbatlari, mustaqilligi darajasi va o'qish jarayoniga rahbarlik qilish xususiyatlari kabi belgilariga ko'ra quyidagi uch asosiy turga ajratiladi:



- √ individual;
- √ sinf-darsli;
- √ ma'ruza-seminarli.

Chizmachilik fanini o'qitish o'quvchilarning yosh xususiyatlari hamda hayotiy va mehnat tajribalaridan kelib chiqqan holda o'ziga xos xususiyatlarga ega. O'quvchilar bu vaqtga kelib bilim olishga ongli ravishda, ma'lum maqsad bilan intiladilar. Shuning uchun o'qituvchi o'z oldidagi vazifalarni tahlil qilib, har bir darsning eng optimal tuzilishini o'ylab, dars maqsadlariga to'liq javob beradigan tuzilishni topishga harakat qilishi kerak. Navbatdagi darsning muvaffaqiyati ko'pincha oldin o'tilgan darslar qatorida uning qanday o'rin tutishiga, o'quvchilar egallagan bilim va amaliy ko'nikmalariga hamda ularga tushuntiriladigan bilimning hajmi va mazmuniga bog'liq. Bunda o'qituvchi o'quvchilarning dunyoqarashlari darajasi, darslik yoki ilmiy-ommabop va texnik adabiyotlardan mustaqil o'qib o'rganish imkoniyatlariga tayanadi.

Pedagogikada darslarning har xil turlari va o'qituvchining bilimlarni bayon qilishining turli shakllari tahlil qilib berilgan. Masalan, darslar quyidagi turlarga ajratilgan:

1. Yangi materialni o'rganish darsi;
2. Bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash darsi;
3. Takrorlash-umumlashtirish darsi;
4. Aralash yoki kombinatsiyalashgan dars.

Chizmachilik darslari uchun eng keng tarqalib, ommalashgan dars turi- aralash yoki kombinatsiyalashgan darsdir. Bunda o'qituvchining mavzuni bayon qilishi bilan bir qatorda o'quvchilar tomonidan amaliy ishlarni bajarilishi ham muhim ahamiyatga egadir. Ushbu amaliy ishlar o'quvchilarga o'quv adabiyotlaridan foydalanib olingan bilimlarni mustahkamlashga hamda uy vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni o'zlashtirishlariga ko'maklashadi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga qiziqish ortib bormoqda. Bunda, asosan hozirgacha o'quvchilar tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga va imkoni boricha xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bunday ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi.

Innovatsiya - inglizcha so'z bo'lib, yangilik kiritish, yangilik ma'nolarini bildiradi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'quvchi va pedagog faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi.

Interaktiv metodlar — bu jamoa bo'lib fikrlashga asoslanadi va pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchining birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi.

Metodik tizimning tarkibiy qismlaridan biri o'qitish vositalaridir. Ularga darsliklar, didaktik vositalar, ko'rgazmali qo'llanmalar, o'qitishning turli texnik vositalari kiradi. O'qitish vositalariga, shuningdek, kompyuter, ekran va tovushli, nazorat va o'qitish dasturlari ham kiradi.

Chizmachilik fanining o'ziga xos xususiyatiga ko'ra uni o'zlashtirish uchun o'quvchilarda fazoviy tasavvurining shakllanib, rivojlanishi zarurligi talab qilinadi. Shu sababli ta'lim muassasalarida chizmachilikdan o'qitish vositalarining yetarlicha bo'lishi, fan o'qituvchisining ulardan o'rinli foydalana olishi hamda talab darajasida maxsus jihozlangan kabinetning bo'lishi ta'lim samaradorligini ta'minlashga ko'maklashadi.

O'quvchilarning bilim olishida va ularda grafik madaniyatning shakllanishida o'quv adabiyotlari (darsliklar, o'quv qo'llanmalar, topshiriqlar to'plamlari va ish daftarlari kabilar) va o'quv jarayonida foydalaniladigan ko'gazmali qo'llanmalar (stendlar, plakatlar va h.) alohida ahamiyatga ega.

Og'zaki-ko'rgazmali yondashuv. U an'anaviy bo'lib, asosan o'qituvchining axborot berishi, o'quvchi-talabalarning bilimni qabul qilishi, to'plashi va xotirasida saqlashi bilan belgilanadi. "Bilim" tushunchasi xotirada saqlanadigan axborot ma'nosida tushuniladi. Bunday bilimlar, ularni qo'llay olish ko'nikmalari (imtihonda shu axborotga doir berilgan savolga bergan javobiga qarab) orqali tekshirib ko'riladi. Bu tizimdagi bilimlar — asosan esda saqlab qolish natijasi rasmiy ma'lumotdir, ko'pincha, yuzaki bo'lishi ham mumkin. Ular xotira tubida saqlangan bo'ladi yoki boshqa so'z bilan aytganda, faqat unga qaratilgan to'g'ridan-to'g'ri savol qo'yilganda esga olinadi. Qayta esga olish darajasidagi bilim uzoq vaqt xotirada saqlanmaydi. O'quvchi savol berilganda uni eslashi, ba'zan esa umuman eslay olmasligi ham mumkin.

Og'zaki-ko'rgazmali yondashuv respublikamiz o'quv yurtlarida keng tarqalgan. Ma'lumot berish tizimida tayyor bilimlarni «o'qituvchi-talabalarga», ularning ehtiyoji va faollik darajasiga bog'liq bo'lmagan holda, bevosita berishi mumkin bo'lgan imkoniyatdan kelib chiqadi. Demak, shunga ko'ra o'qituvchining asosiy vazifasi zaruriy axborotni ma'lum qilishi va uni xotirada mustahkamlash ustida ishlashdir.

V.Guzeyevning ta'kidlashicha, an'anaviy metodikaga xos bo'lgan xususiyat dastur talablarida ifodalanuvchi ta'lim maqsadlarini «o'zlashtirish» tushunchasi qobig'iga o'ralgan qandaydir noaniq tasavvur bilan tavsiflanadi. Bunda ta'lim jarayonida ko'proq muvaffaqiyatga erishgan o'qituvchilarning ish tajribalarini umumlashtirish asosida ta'lim jarayonlari tashkil etiladi. Har bir aniq vaziyat uchun ilg'or o'qituvchi (pedagog)larning pedagogik faoliyati namunasi qidiriladi, ammo ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan bir qator olimlar va amaliyotchilar alohida metodikalarning davri o'tib ketganligi va har qanday ilg'or pedagoglar tajribalarini umumlashtirish tizimli va maqsadga yo'naltirilgan, samarali ta'limni qurish imkonini bermasligini jiddiy ta'kidlashmoqda.

Respublikada amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi bir qator ijobiy ishlar, fan-texnikaning jadal sur'atlar bilan o'sishi, bugungi kunda raqobatbardosh yuqori malakali kadrlar tayyorlash, shaxsni rivojlantirish, uning ma'lumot olish darajasini yuqori tarzda ta'minlashga nisbatan jamiyat ehtiyojlari bilan o'qitish uslublari o'rtasida ziddiyatlar tug'ilishiga olib keladi. Shuning uchun ta'lim jarayonida boshqa yondashuvlarni ham qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Ro'ziyev E.I., Ashirboyev A.O. Muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi darslik. -T.: Fan va texnologiya 2010.
2. Rahmonov I, "Chizmachilikdan didaktik o'yinlar" Toshkent-1992.
3. Achilov Nurbek Norboy o'g'li (2020). The use and importance of the three-dimensional features of the auto cad program in drawing projects in public schools. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (3) Part II, 189-192.

4. Kokiev Boburmirzo Bahodir o'g'li (2020). The importance of pedagogical techniques in teaching assistive design. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (2) Part II, 182-185.

5. Achilov N.N. CHizmachilikda oddiy qirqimlar bajarish orqali o'quvchilarning fazoviy tasavvurini shakllantirish. Muqallim ham uzluksiz bilimlendiriy ilimiy metodikalik jurnali №2 2020 ISSN 2181-7138

РЕЗЮМЕ

Hozirgi zamon talabi bo'lgan dars samaradorligi va yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish. Shuning uchun o'qituvchining darsga bo'lgan tayyorgarligi darsning o'quvchilarga qiziqarli va tushunarli o'tishi ham dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham ushbu maqolada chizmachilik darslarining samaradorligi va o'quvchilarning bu fanga qiziqishlarini oshirishda ko'rgazmali quollaridan qanchalik samarali foydalanishi usullari keltirib o'tilgan.

РЕЗЮМЕ

Эффективное использование современных методов обучения и новых инновационных педагогических технологий. Поэтому подготовка учителя к уроку - один из важнейших моментов, чтобы урок был интересным и понятным для учеников. Поэтому в этой статье рассказывается об эффективности уроков рисования и о том, как эффективно использовать наглядные пособия для повышения интереса учащихся к предмету.

SUMMARY

Effective use of modern teaching methods and new innovative pedagogical technologies. Therefore, preparing the teacher for the lesson is one of the most important moments for the lesson to be interesting and understandable for students. Therefore, this article discusses the effectiveness of drawing lessons and how to use visual aids effectively to increase student interest in the subject.



ARXITEKTURADA INSON VA FAZO

Saydaliyev S.S., Nig'manov B.V.

TAQI

Achilov N.N.

TVCHDPI

Tayanch so'zlar: tabiat va inson, buyum, tana, o'lcham, nisbat, fazo, loihalash, solishtirish, tasavvur, rassom, me'mor, arxitektura, mutanosiblik, sezish, modulyor, estetik ko'rinish.

Ключевые слова: Человек и пространство, тело, размер, соотношение, пространство, проектирование, сопоставление, художник, представление, архитектор, пропорция, чутё, модульор, эстетический вид.

Key words: Man and space, body, size, ratio, space, design, juxtaposition, artist, presentation, architect, proportion, flair, modulator, aesthetic appearance.

Inson o'zi uchun yasab olgan buyumlarni, o'z tanasining o'lchami va nisbatlariga moslab oladi. Bu narsa avvalom bor faqat insonning o'ziga dahildor bo'lgan buyumlarga tegishlidir. Inson tanasining o'lchamlarini bilish faqat buyumlarni loihalashdagina emas, balki tasvirlashda ham zarur. Har qanday buyumning o'lchami xaqida tasavvurga ega bo'lish uchun, uning yonida turgan odamga solishtirish orqali eng yaxshi tasavvurga erishiladi. Qadimgi Misr zamonlardayoq rassomlar va me'morlar inson tanasi nisbatlarining qonuniyatlarini xaqida qiziqishgan.

Fransuz me'mori Le Korbyuze "Modulyor" deb nomlangan tizimni ishlab chiqdi. Modulyor- bu o'lchov tarozi bo'lib (uyg'unlik miqdori tizimi) XX-asrga kelib 1942-1948 yillar mobaynida shvesariyalik fransuz arxitektori Le Korbyuze arxitekturaviy shakllarni mutanosiblikda qurish asbobi sifatida ishlatishni tavsiya qildi va uni loihalayapgan binolarida qo'lladi (1-rasm).

Т. Н. Қары Ниязий атындағы Өзбекстан педагогикалық
илим-изертлеу институтының Ж. Орынбаев атындағы Қарақалпақстан
филиалы

**«МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ
БИЛИМЛЕНДИРИЎ» № 3-2**
Нөкис — 2021

Басып шығыўға жуўапкер:

А. Тилегенов

Баспаға таярлаған:

А. Тилегенов, Н. Абдукаримов

Оригинал-макеттен басыўға рухсат етилди 12.03.2021. Форматы 60x84¹/₁₆
«Таймс» гарнитурасында офсет усылында басылды.
Шэрти б.т. Нашр. т. Нусқасы 2000. Буйыртпа №

«NISO POLIGRAF» ШК босмахонасида босилди.
Тошкент ш., Ҳ. Бойқаро, 51

